

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIV UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Milliy universiteti
rektori, prof. I.U.Madjidov**



**60320100 – JURNALISTIKA: BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI
JURNALISTIKASI BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA IJODIY
(KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI HAMDA
O‘TKAZISH TARTIBI
(2023-2024 o‘quv yili qabuli abuturentlari uchun)**

Toshkent – 2023

TUZUVCHILAR:

M.Mirsoatova – O‘zMU Jurnalistika fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Y.Mamatova – O‘zMU Jurnalistika fakulteti professori, filologiya fanlari doktori.

T.Eshbekov – O‘zMU Jurnalistika fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

TAQRIZCHILAR:

SH.Qosimov – O‘zJOKU Jamoachilik bilan aloqalar va reklama kafedrasi mudiri.

R.Rayimjonov – O‘zJOKU Jamoatchilik bilan aloqalar va reklama fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi.

M.Parpiyev – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi boshqarma boshlig‘i.

M.Qurbonova – O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Kirish

60320100 – Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda matbuot nashrlari va matbaachilik sohalari talab etadigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- Bosma va elektron OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Bosma OAV faoliyatini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Og'zaki muloqotga moyilligi;
- Yozma savodxonlik darajasi.

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich abituriyentlarning bosma ommaviy axborot vositalari sohasiga qiziqish darajasi, ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha mazkur dastur asosida tuzilgan bilet savollariga og'zaki savol-javob bo'lib, u quyidagi tartibda jarayonlar to'liq videotasvirga olingan holda o'tkaziladi:

– bilet savollari tasdiqlangan mazkur dasturdan kelib chiqib tuziladi va biletlar universitet qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertida qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– abituriyent jami tuzilgan biletlardan bittasini tanlab oladi va biletde keltirilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan joyga o'tiradi. Biletdegi savollarga abituriyent javoblarning asosiy jihatlarini yozma ravishda 30 daqiqa davomida javoblar varaqasiga tushiradi. Abituriyent o'z xohishiga ko'ra biletdegi savollarga tayyorgarliksiz javob berishi mumkin.

Biletde uchta savollar mavjud bo'lib, unda keltirilgan savollardan tashqari komissiya a'zolari ko'pi bilan ikkita qo'shimcha savollar berishi mumkin. Savol-javoblarga odatda 15 daqiqa beriladi.

Qo'shimcha savollar quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi lozim:

– abituriyentning ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan, e'firga uzatilgan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallarida (maqolalarda)

yoritilgan mavzularning tarixi yoki sabab bo'lgan voqea-hodisa orqali abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari doirasi aniqlashga qaratilgan;

– jamiyat va uning turli sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar;

– O'zbekiston va jahonda yuz berayotgan so'nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo'yicha savollar;

– badiiy, publisistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyandalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so'nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar.

Shuningdek, qo'shimcha savollar abituriyentning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejaları, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatlarini aniqlashga qaratiladi.

Og'zaki savol-javob uchun namunaviy dastur

Jurnalistika sohasining o'ziga xos xususiyatlari. Ommaviy axborot vositalarining asosiy turlari. Bosma OAV va ularning o'ziga xosligi. Radiojurnalistikaga xos jihatlari. Jurnalist portretiga chizgilar (ta'riflar).

O'zbekistonning keyingi yillardagi rivojlanishida jurnalistikaning o'rnini. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli. Xalq bilan muloqot o'rnatishda jurnalistikaning o'rnini. Intervyu jurnalistika janri sifatida. Gazeta bosma ommaviy axborot vositasi sifatida. Jurnallarning yo'nalishlariga ko'ra turlari.

Gazeta va jurnallarda faoliyat yuritadigan taniqli jurnalistlar. Ommaviy axborot vositalariga xalq dardini olib chiqish. Jurnalistning shaxsiy sifatleri. Ommaviy axborot vositalarining texnik ta'minoti.

Taniqli O'zbekistonda jurnalistlari. Jurnalist madaniya va odobi. Jurnalistikaning bugungi jamiyatda tutgan o'rnini. Radiojurnalistika va uning raqamli texnika davridagi o'rnini. Telejurnalistika oldiga qo'yiladigan talablar.

Jurnalist surishtiruv jarayoni. Ijtimoiy tarmoqlardan kundalik hayotda foydalanish. Jurnalistika va badiiy ijod munosabati. Bosma ommaviy axborot vositalarida faol qatnashadigan adiblar. Jadid matbuoti va uning turlari. Bosma ommaviy axborot vositalari janrlari.

Yoshlar nashrlariga qo'yiladigan talablar. Bosma axborot vositalarining internet jurnalistikasidan farqli jihatlari. Internet jurnalistikasi va uning janrlari. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunining bayram qilinishi. Turkistondagi ilk bosma ommaviy axborot vositalari.

Badiiy asarlar chop etiladigan jurnallar. Viloyat va tuman gazetaları, ularning xususiyatlari. Ijtimoiy tarmoqlarning turlari. Jurnalistikada imij va uning o'rnini. Hozirgi adabiy jarayondagi taniqli shoirlar.

Ikkinchi bosqich diktant shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– diktant mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan bo'lib, mavzular universitet qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertda qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari diktant boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga yoki rais o'rinbosariga uning mavzu va matnlari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;

– diktantni tashkil etish bilan birga o'tkazilishi uchun **jami 60 daqiqa** vaqt belgilanadi;

– diktant matnlari muhrlangan daftarga yoziladi. Diktant yozilgan daftarda, daftar muqovasida yoki diktant matnida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismini ko'rsatishiga, abituriyentni bildiruvchi shartli belgilarning qo'yilishiga va ishning obyektivligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa holatlarga yo'l qo'yilmaydi;

– diktantning **hajmi 400-420 so'z** atrofida belgilanadi;

– diktant uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini diktantni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

– diktant oliy ta'lim muassasasi binosidan chiqmagan holda fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

– tekshirilgan diktantlar unga qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini diktantni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – 93 ball.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki savol-javob jarayonidagi savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning 33,3 foizi, ya'ni 31 ball belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni diktantni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal ballning 66,6 foizi, ya'ni 62 ball belgilanadi.

Ijodiy imtihonning barcha bosqichlari tugagandan keyin uning natijalari ko'pi bilan ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.

Og‘zaki savol-javobni baholash mezonlari

Og‘zaki savol-javobga 0 – 31 ballgacha qo‘yish mumkin.

№	Ballar qo‘yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika va OAV haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi yo‘q, abituriyentning fikrlashi sayoz, OAVda e‘lon qilingan materiallari yo‘q, lekin jurnalist bo‘lish istagi kuchli	0 – 6 ball
2.	Jurnalistika va OAV sohasi haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim jurnalistlarni taniydi, OAVda e‘lon qilingan 1-3 ta kichik hajmli material bor	7 – 13 ball
3.	Jurnalistika va OAV sohasiga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, OAVni izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 ta e‘lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta jurnalistni taniydi, ularning ijodiga sharh bera oladi	14 – 19 ball
4.	Jurnalistika va OAV sohalariga ko‘p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o‘rnini chuqur tushunadi, OAVni yaxshi biladi, ko‘p jurnalistlarni taniydi va ularning ijodiga atroflicha baho bera oladi, 10-20 ta e‘lon qilgan material bor	20 – 25 ball
5.	Jurnalistika va OAV sohalariga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko‘p borgan, axborot xizmatlari faoliyati, maqsad va vazifalari bilan tanish, sohaning jamiyatdagi o‘rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, bir qator jurnalistlarni taniydi hamda ularning ijodiga tavsif bera oladi, e‘lon qilgan materiallari 20 tadan ko‘p	26 – 31 ball

Diktantni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

№	Ballar qo‘yish mezonlari:	ballar
1.	Diktant matnida 15 tadan ortiq imloviy, tinish belgilari bilan bog‘liq va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan	0 ball
2.	Diktant matnida imloviy, tinish belgilari bilan bog‘liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 12-15 tagacha bo‘lib, shundan 7-9 tasi imloviy, 5-6 tasi tinish belgilari va uslubiy xatolar bo‘lishi mumkin	1–8 ball
4.	Imloviy, tinish belgilari bilan bog‘liq va uslubiy	9–16 ball

	xatolarning umumiy soni 9-11 ta bo'lib, shundan 5-6 tasi imloviy, 4-5 tasi tinish belgilari va uslubiy xatolar bo'lishi mumkin	
5.	Imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 7-9 ta bo'lib, shundan 5-6 tasi imloviy, 4-5 tasi tinish belgilari va uslubiy xatolar bo'lishi mumkin	17–25 ball
6.	Imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 5-7 ta bo'lib, shundan 3-4 tasi imloviy, 3-4 tasi tinish belgilari va uslubiy xatolar bo'lishi mumkin	26–33 ball
7.	Imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 3-5 ta bo'lib, shundan 2 tasi imloviy, 2-3 tasi tinish belgilari va uslubiy xatolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, abituriyent tomonidan qayta to'g'rilashlarga yo'l qo'yilganligi yoki qo'yilmaganligi bo'yicha	34–42 ball
8.	Imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 2 tadan ortiq bo'lmagan bo'lishi shart. Shuningdek, abituriyent tomonidan qayta to'g'rilashlarga yo'l qo'yilganligi yoki qo'yilmaganligi bo'yicha	43–52 ball
9.	Imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolar 1 ta yoki yo'q. Shuningdek, chiroyli yozuv talablariga amal qilingan va abituriyent tomonidan qayta to'g'rilashlarga yo'l qo'yilmagan	53–62 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniqiga taqdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalari yuzasidan apellyatsiya berish tartibi

Ijodiy imtihon natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Diktant yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat

etilmaydi, faqat mavjud materiallar asosida ko‘rib chiqiladi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o‘zgartirish faqat fan bo‘yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta‘lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihon o‘tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko‘rib chiqish tartiblari universitet veb-saytiga qo‘yish orqali abituriyentlar e‘tiboriga havola qilinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., “O‘zbekiston”. 2023.
2. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/5841063>, 2022 yil 28 yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-294-sonli Qarori.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”. 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so‘zi” gazetasi 2022 yil 27 iyun.
7. Mirziyoyev Sh.M. BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 2021 yil 22 fevral.
8. Do‘stmuhammad X. Jurnalist bo‘lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
9. Sulaymonov I. Men jurnalistman. – T., “Sharq”, 2001, 192 b.
10. Meliboyev A. Qirq beshinchi bekat – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008.
11. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
12. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009.
13. Qosimova N. Axborot xizmatlari uchun amaliy qo‘llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot. – T., “BAKTRIYA PRESS”, 2014.
14. Meliboyev A. Jurnalistika: kasb, ijod, mahorat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015.-192 b.
15. Irnazarov Q. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. – T., “O‘zbekiston”, 2008.
16. Nishonova G., Shukurova G., Qosimova N. va boshq. Zamonaviy media muhitda RR-xizmatlar. – T., “O‘zbekiston”, NMIU, 2019. 512-b.

17. Toshpo‘latova N. Jurnalistika. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari – T., “O‘zbekiston”. 2019.
18. Aslanov T. PR-matnlar: o‘quvchini qanday qilib jalb qilish mumkin. T.: Standard Poligraph Books, 2022. 512-b.
19. Jumanova S. Jurnalistika (abituriyentlar uchun ijodiy imtihon qo‘llanmasi) T.: “Ziyo nashr”, 2022.
20. To‘xliyeva N. Tahrir mahorati. – Toshkent: Bayoz, 2022